JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 5, Issue 1, November 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

MA’MURIY ORGANLARNING DISKRETSION VAKOLATLARI ASOSIDA QABUL QILINGAN HUJJATLARNI SUDDA NIZOLASHISHDA ISBOTLASH MAJBURIYATINI TAQSIMLASHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

Abdullayeva Xavvajon Erkin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
xavvo09@gmail.com

.

ИНФОРМАЦИЯ О СТАТЬЕ

ИСТОРИЯ СТАТЬИ:
Received:18.11.2026
Revised: 19.11.2026
Accepted:20.11.2026

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
diskretsion vakolat, ma’muriy organ, ma’muriy hujjat, isbotlash majburiyati, isbotlash yuki, sud nazorati, ma’muriy nizolar, protsessual tenglik, qonuniylik..

АННОТАЦИЯ:

Mazkur maqolada ma’muriy organlarning diskretsion vakolatlari asosida qabul qilingan hujjatlarni sudda nizolashishda isbotlash majburiyatini taqsimlashning huquqiy muammolari tahlil qilindi. Ishning maqsadi diskretsion vakolatlarning qonuniyligi, isbotlash majburiyatining taraflar o‘rtasida taqsimlanishi va sud nazoratining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tahlil davomida ma’muriy organlarning hujjatlarni asoslantirish va ularning qonuniyligini isbotlash majburiyati bilan bog‘liq muammolar aniqlandi. Maqolada isbotlash majburiyatini takomillashtirish va samarali sud nazoratini ta’minlashga qaratilgan takliflar ilgari surildi. Tadqiqot natijalari ma’muriy huquq sohasi mutaxassislari va sud amaliyoti vakillari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

KIRISH

Davlat boshqaruvi jarayonida ma’muriy organlar fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan turli ma’muriy hujjatlarni qabul qiladi. Bunda ularga qonunchilik doirasida muayyan tanlov imkoniyatini beruvchi diskretsion vakolatlar taqdim etiladi. Ushbu vakolatlar ma’muriy organlarga vaziyatdan kelib chiqib, eng maqbul qarorni tanlash imkonini beradi. Biroq bunday qarorlar har doim qonuniy, asoslantirilgan va manfaatdor shaxslarning huquqlariga mos bo‘lishi lozim. Mazkur masalaning dolzarbligi diskretsion vakolatlar asosida qabul qilingan hujjatlarni sudda nizolashishda ularning qonuniyligi va asoslanganligini isbotlash bilan bog‘liq. Chunki ma’muriy organ qaror qabul qilishga asos bo‘lgan dalillarga ega bo‘lsa, manfaatdor shaxs ulardan foydalanishda cheklanishi mumkin. Natijada taraflar o‘rtasida isbotlash

imkoniyatlari tengsizligi yuzaga keladi. Shu sababli isbotlash majburiyatini taqsimlash va sud nazoratining samaradorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi

Mazkur maqolaning maqsadi diskretsion vakolatlar asosida qabul qilingan ma’muriy hujjatlarni sudda nizolashishda isbotlash majburiyatining taqsimlanishiga oid huquqiy muammolarni tahlil qilish, taraflarning protsessual majburiyatlarini aniqlash hamda O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Ma’muriy huquq va ma’muriy sud ishlarini yuritishning nazariy asoslari milliy huquqshunoslikda bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, E.Xojiyevning "Ma’muriy huquq" darsligida davlat boshqaruvida qonuniylik, ma’muriy organlarning vakolatlari, boshqaruv shakllari va uslublari hamda davlat organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari yoritilgan[1]. Muallif tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar ma’muriy organlar faoliyatining huquqiy chegaralarini va diskretsion vakolatlarning mazmunini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. S.Muratayev, B.Musayev va D.Artikov hammuallifligidagi "Ma’muriy huquq va protsess" darsligida davlat boshqaruvi organlarining huquqiy maqomi, ma’muriy faoliyatning asosiy shakllari va ma’muriy-huquqiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan[2]. Mazkur ilmiy qarashlar ma’muriy organlar va jismoniy hamda yuridik shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarda huquq va majburiyatlar muvozanatini aniqlash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma’muriy sud ishlarini yuritishda dalillar va isbotlash masalalari Parizod Raxmatullayeva va Norquvvat Yangiboyev tomonidan chop etilgan "Ma’muriy sud ishlarida dalillar va isbotlash" maqolasida ham o‘rganilgan. Unda isbotlash majburiyati, dalillarni taqdim etish, tekshirish va baholash tartibi hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan[3]. Ushbu tadqiqot maqolamizdagi isbotlash majburiyatini taqsimlash masalasini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Milliy qonunchilikda mazkur masalaning asosiy huquqiy tartibi O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan. Xususan, Kodeksning 66–68-moddalarida isbotlash, isbotlash majburiyati, dalillarni taqdim etish va talab qilib olish masalalari tartibga solingan. Ayniqsa, 67-moddada nizolashilayotgan qarorlar yuzasidan isbotlash majburiyatining ma’muriy organlar zimmasiga yuklatilishi belgilangan. Bu qoida diskretsion vakolatlar asosida qabul qilingan hujjatlarning qonuniyligini sudda tekshirishda alohida ahamiyatga ega[4]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy ilmiy manbalarda ma’muriy huquq, davlat organlari vakolatlari va sud ishlarini yuritishda isbotlash masalalari alohida yo‘nalishlarda yoritilgan. Biroq aynan diskretsion vakolatlar asosida qabul qilingan ma’muriy hujjatlarni nizolashishda isbotlash majburiyatini taqsimlash, ma’muriy organlarning asoslantirish majburiyati va sud nazorati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks o‘rganish zarurati

mavjud. Mazkur masalalarni tizimli tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy vazifasini tashkil etadi.

NATIJALAR

Ma’muriy organlarning diskretsion vakolatlari asosida qabul qilgan hujjatlarini sudda nizolashishda isbotlash majburiyatini taqsimlash masalasi, avvalo, ma’muriy ixtiyoriylikning huquqiy mohiyati va uning qonuniy chegaralarini aniqlashdan boshlanadi. O‘zbekiston Respublikasining «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonunida ma’muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat) ma’muriy organning qonunchilik doirasida ruxsat etilgan choralardan birini o‘z ixtiyoriga ko‘ra tanlash huquqi sifatida belgilangan[5]. Biroq bu vakolat ma’muriy organga istalgan qarorni qabul qilish huquqini bermaydi. Qonunning 17-moddasiga ko‘ra, diskretsion vakolat qonunchilikda belgilangan doirada amalga oshirilishi va uning asosida qabul qilingan hujjatlar vakolat maqsadiga mos kelishi shart \[5\]. Demak, ma’muriy organ qarorining qonuniyligini baholashda faqat vakolat mavjudligi emas, balki undan qanday maqsadda va qay tarzda foydalanilganligi ham muhim hhisoblanadi O‘rganilgan qonunchilik va ilmiy manbalarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, mazkur masalada isbotlash jarayonini uchta asosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin.

Birinchi yo‘nalish – ma’muriy hujjatni qabul qilish bosqichidagi asoslantirish. Ma’muriy organ qaror qabul qilishdan oldin ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirishi lozim. "Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida"gi Qonunning 18-moddasida aynan shu talab belgilangan[5]. Bu esa ma’muriy organning qaror qabul qilish jarayonida dalillarni yig‘ish va ularni baholash majburiyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, Qonunning 53-moddasiga muvofiq, ma’muriy hujjat qonuniy, asoslangan, adolatli, aniq va tushunarli bo‘lishi kerak[6]. Demak, qarorning asoslantirilmaganligi keyinchalik sudda uning qonuniyligini baholashda muhim omilga aylanadi.

Ikkinchi yo‘nalish – sudda isbotlash majburiyatining taqsimlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 67-moddasida nizolashilayotgan qarorlar, harakatlar yoki harakatsizlik yuzasidan isbotlash majburiyati tegishli ma’muriy organlar va mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatilgan[4]. Shu bilan birga, arizachi dalillarni yig‘ishda o‘z imkoniyatlari doirasida ishtirok etishi va yetkazilgan zarar miqdorini isbotlashi shart. Bu qoida taraflar o‘rtasidagi protsessual imkoniyatlar nomutanosibligini kamaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ma’muriy organ o‘z qarorini qabul qilishda tayangan asoslardan tashqaridagi yangi vajlarni keyinchalik keltira olmasligi isbotlash jarayonining muhim kafolatlaridan biridir[4].

Uchinchi yo‘nalish – sud tomonidan dalillarni tekshirish va baholash. Ma’muriy sud ishlarini yuritishda dalillarni taqdim etishning o‘zi yetarli emas, ularning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi ham aniqlanishi lozim. Kodeksning 66-moddasida isbotlash dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash jarayoni sifatida belgilangan. 73-moddaga ko‘ra

esa sud dalillarga ishning barcha holatlarini har tomonlama, to‘liq va xolis ko‘rib chiqish asosida baho beradi[4]. Shu sababli diskretsion vakolat asosida qabul qilingan hujjatni tekshirishda sud nafaqat qarorning tashqi shakliga, balki uning faktik asoslari, qonuniy maqsadi va asoslantirilganligiga ham e’tibor qaratishi kerak.

Ma’muriy organ va manfaatdor shaxs o‘rtasidagi isbotlash imkoniyatlari bir xil emas. Chunki ma’muriy hujjatni qabul qilishga asos bo‘lgan xizmat tekshiruvlari, ichki yozishmalar, ma’lumotnomalar va boshqa hujjatlar, odatda, ma’muriy organ tasarrufida bo‘ladi. Manfaatdor shaxs esa ushbu dalillarning barchasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Parizod Raxmatullayeva va Norquvvat Yangiboyevning "Ma’muriy sud ishlarida dalillar va isbotlash" nomli ilmiy maqolasida ham ma’muriy sud ishlarida dalillarni yig‘ish, tekshirish va baholashning o‘ziga xos xususiyatlari hamda isbotlash jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritilgan[8]. Bu holat ma’muriy organ zimmasiga isbotlash majburiyatini yuklashning protsessual ahamiyatini yanada oshiradi.

Tahlil davomida isbotlash majburiyatini taqsimlashda bir nechta muhim muammolar mavjudligini aaniqladik

- Dalillardan foydalanish imkoniyatining teng emasligi. Ma’muriy organ qaror qabul qilish jarayonida shakllangan hujjatlar va ma’lumotlarga ega bo‘ladi, manfaatdor shaxs esa ularni mustaqil ravishda olishda qiyinchiliklarga duch kelishi mmumkin
- Diskretsion vakolat chegaralarini aniqlash muammosi. Ma’muriy organga berilgan tanlov imkoniyatidan qonuniy foydalanilganligini aniqlash uchun qarorning nafaqat huquqiy asosi, balki uning maqsadga muvofiqligi va mutanosibligi ham baholanishi zarur.
- Qarorlarni yetarlicha asoslantirmaslik. Ayrim hollarda ma’muriy hujjatlarda nima sababdan aynan shu qaror tanlangani va boshqa imkoniyatlardan foydalanilmagani yetarlicha ochib berilmaydi. Bu esa sudda isbotlash jarayonini murakkablashtiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda ma’muriy organ zimmasidagi isbotlash majburiyatini faqat hujjatning mavjudligi bilan cheklamaslik lozim. Organ qaror qabul qilishga asos bo‘lgan faktik holatlarni, tanlangan choraning qonuniyligini hamda diskretsion vakolatdan uning belgilangan maqsadiga muvofiq foydalanilganligini ham asoslab berishi kerak. Arizachining isbotlash jarayonidagi ishtiroki uning zimmasiga ma’muriy organning barcha faoliyatini tekshirish majburiyatini yuklamasligi lozim. Arizachi o‘z huquqi yoki qonuniy manfaatiga daxldor holatlarni ko‘rsatishi, ma’muriy organ esa o‘z qarorining qonuniyligi va asoslanganligini tasdiqlashi maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA

O‘tkazilgan tahlillar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, ma’muriy organlarning diskretsion vakolatlari asosida qabul qilingan hujjatlarni sudda nizolashishda isbotlash majburiyatini to‘g‘ri taqsimlash odil sudlovni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki ma’muriy organ qaror qabul qilish jarayonida zarur hujjatlar va dalillarga ega bo‘lsa, manfaatdor shaxs ularni olish va taqdim etishda muayyan

qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli isbotlash majburiyatining ma’muriy organ zimmasiga yuklatilishi taraflar o‘rtasidagi protsessual tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. Diskretsion vakolatlar asosida qabul qilingan hujjatlarni sudda tekshirishda faqat ularning qonunchilikka muvofiqligini aniqlash yetarli emas. Bunda ma’muriy organ qarorni qanday faktik holatlarga asoslanib qabul qilgani, tanlangan choraning qonuniy maqsadga muvofiqligi va manfaatdor shaxslarning huquqlariga ta’siri ham baholanishi lozim. Ayniqsa, ma’muriy hujjatning yetarlicha asoslantirilmaganligi sud jarayonida isbotlash bilan bog‘liq muammolarni keltirib cchiqaradi Ushbu tahlil natijasida isbotlash majburiyatini samarali taqsimlash uchun uchta asosiy yondashuvni taklif qilamiz:

- Ma’muriy organ qabul qilingan hujjatning qonuniyligi, faktik asoslari va diskretsion vakolatdan belgilangan maqsadda foydalanilganligini isbotlashi lozim.
- Manfaatdor shaxs o‘z huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligini ko‘rsatuvchi mavjud dalillarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.
- Sud ma’muriy organ taqdim etgan dalillarni tekshirish bilan birga, diskretsion vakolatning qonuniy chegaralariga rioya etilganligini ham baholashi zarur.

Ma’muriy organlarning qarorlarini asoslantirish sifatini oshirish va manfaatdor shaxslarning dalillardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ma’muriy tartib-taomillarning ochiqligi va qonuniyligini ta’minlashga oid milliy huquqiy qarashlar ham muhim o‘rin tutadi[5]. Diskretsion vakolatlar asosida qabul qilingan ma’muriy hujjatlarni nizolashishda isbotlash majburiyatini adolatli taqsimlash ma’muriy organlar faoliyati ustidan samarali sud nazoratini kuchaytiradi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda qonunchilik normalarini takomillashtirish, ma’muriy organlarning asoslantirish majburiyatini kuchaytirish va protsessual tenglikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida ma’muriy organlarning diskretsion vakolatlari asosida qabul qilingan hujjatlarni sudda nizolashishda isbotlash majburiyatini to‘g‘ri taqsimlash muhim huquqiy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bunda ma’muriy organ qabul qilingan hujjatning qonuniyligi, faktik asoslari va diskretsion vakolatdan belgilangan maqsadda foydalanganligini isbotlashi lozim. Manfaatdor shaxslarning dalillarni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish, ma’muriy hujjatlarni asoslantirish talablarini kuchaytirish hamda sud nazoratining samaradorligini oshirish zarur. Mazkur yo‘nalishdagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish taraflar o‘rtasidagi protsessual tenglikni ta’minlash va fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xojiyev E.T. Ma’muriy huquq. Darslik. – Toshkent, 2006. - 104 b.

2. Muratayev S.A., Musayev B.T., Artikov D. Ma’muriy huquq va protsess. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 392 b.

3. Raxmatullayeva P., Yangiboyev N.Q. Ma’muriy sud ishlarida dalillar va isbotlash. – 2026. – B. 282–283.

4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. 66–68-73-moddalar.

5 O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni. 17–18-moddalar.

6 Nematov J.N. va boshqalar. Ma’muriy sud ishlarini yuritish: milliy va xorijiy tajriba. Monografiya. – Toshkent: Makon Savdo Print, 2024. - 180 b.